

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI



O'zbek va chet tillar kafedrası assistenti Namazova Feruza Shomurodovnaning Yevropa hamjamiyatining Erasmus Plus dasturi doirasidagi MIND(**Menejment innovatsiya rivojlanish**) loyihasi bo'yicha 29.05-3.06-2017yilda Slovakiya davlatining Bratislava shahridagi Slavakiya Texnologiya Unvarsiteti(STU)ga qilgan xizmat safari

HISOBOTI



O'quv-seminar mazmuni

Ushbu hisobotda O'zbek va chet tillar kafedrası assistenti F.Sh.Namazovning Yevropa hamjamiyatining Erasmus Plus dasturi doirasidagi **“Menejment innovatsiya rivojlanish”** /MIND/ *loyiha raqami 561539-EPP-1-2015-ES-EPKA2-CBHE-SP loyihasi a'zosi sifatida 2017 yil 29-maydan -3 iyun kunlari bo'lib o'tgan loyihasining seminar uchrashuviga qatnashish uchun qilingan xizmat safari va uning natijalari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.*

MIND (*Menejment innovatsiya rivojlanish*) - ERASMUS Plus dasturi doirasidagi Yevropa Komissiyasi tomonidan moliyalashtirilgan uch yillik loyiha hisoblanadi.

Loyihaning maqsadi –mamlakatlar strategiyasining eng muhim jihatlarini mustahkamlashda kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish va tashkil etish hamda unda innovatsiyani rivojlantirish. Shuningdek, Loyiha Markaziy Osiyo universitetlarining barqarorligini mustahkamlash va ta'lim dasturlari jozibadorligini oshirishni maqsad qilgan.

Slovakiya Texnologiya Universiteti (STU) jahonning 500 ta eng yaxshi oliy o'quv yurtlari qatoriga kiradi. STUda 7 ta fakultet va 1 boshqaruv institute mavjud. Strategik hamkorlik loyihalari 23 tadan ortiq bo'lib, 15403 ta talaba, 1228 ta PhD ilmiy izlanuvchilar hamda 1080 ta professor-o'qituvchilar faoliyat olib boradi. Xar yili 1936 ta bakalavir va 2029 ta injinerlar 258 ta PhD talabalari bitirib chiqadi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining 2017 yil 27 maydagi 09-1/65 - sonli ruxsat xati asosida joriy yilning 29 may – 2 iyun kunlari Slovakiya Respublikasining Slovakiya Texnologiya Unvarsiteti (STU)da bo'lib o'tgan Yevropa Ittifoqining ERASMUS Plus dasturi doirasidagi “MIND o'qitish taklifini tayyorlash” mavzusidagi loyihaning navbatdagi o'quv-seminarida ishtirok etdim.

O'quv-seminar dasturining kun tartibiga muvofiq 2017 yil 29 may kuni Slovakiya Texnologiya Universiteti (STU)ning Fuqarolik Muhandislik fakulteti dekani Prof. Stanislav Unkik bilan uchrashdik. Uchrashuvda fakultet dekani fakultet faoliyati va uning yutuqlari haqida ma'lumot berdi. Ushbu fakultet boshqa fakultetlarga nisbatan eng ko'p talabalar va o'quv xonalari mavjudligi bilan ajralib turadi. Shundan so'ng, Slovakiya Texnologiya Universiteti (STU)ning prorektori Prof. Ing., Stanislav Biskupik bilan uchrashuv o'tkazildi. Uchrashuvda STU prorektori universiteti tarixi, faoliyati va yutuqlari haqida ma'lumotlar berildi. Shundan so'ng, prorektor barcha ishtirokchilar bilan tanishib chiqib, o'quv-seminariga omad tiladi.

O'quv-seminar “WP1 da Yosh tadbirkorlarning ko'nikma tahlili: xulosa va takliflari” mavzusida Eva Jankovichova tomonidan ma'ruza qilindi. Ma'ruzada MIND loyihasining maqsadi unda ko'tiladigan natijalar haqida ma'lumotlar berdi. Shundan so'ng, barcha Oliy ta'lim muassasalari va tashkilotlardan olingan so'rovnomaning tahlil natijasini bayon etdi.

Shuningdek, kunning ikkinchi kunida Phd. Richard Matusek tomonidan “Slovakiyada hamkorlik muhitini tashkil etish” mavzusida ma'ruza qildi. Ushbu

ma'ruzada Slovakiyaning iqtisodiy holati va uning imkoniyatlari haqida, strategic rivojlanishi to'g'risida ma'lumotlar berdi.

Talabalar uchun texnik bilim, ilm-fan muhim ahamiyatga ega. O'qitishning maqsadi – bitiruvchilarga biznes imkoniyatlarini o'rgatish va unga tayyorlashdan iborat.

Ikkinchi kuni, professor A.Soltesz tomonidan “Kompaniyani tubdan takomillashtirish sifatida sifat menejmentining jahon tendensiyalari” mavzusida ma'ruza qildi. Bunda biznesni shakllantirish, sifat menejmentini boshqarish, biznes loyihalarini ishlab chiqish borasida ma'ruza o'qidi. Ushbu loyihaning 3 ta roli: mavjud, ishlab chiqaruvchi, dizaynerlik, mijozlaridir. Sifat menejmentini loyihalashtirishda ISO: 9000 sifat darajasiga erishish uchun loyihani pejalashtirish, rajani bajarish, uni tahlil qilish va ish faoliyatini amalga oshirishi muhimligini takidlad.

Shuningdek, Andrey Soltasz tomonidan “Ilmiy izlanishlarga ichki roziliklarni taqdim etish prinsiplarini o'rganish va taqdim etish”, Monica Ballarini tomonidan “Unversitetda tashabuskorliklarni yaratishda, intellektual boyliklarning roli”, prof. Jozef Gasparik tomonidan “Kompaniya sifatini yaxshilashda jaxonda sifat menejmentining o'rni”, Lenka Bednarova tomonidan “Innovatsiyani shakllantirishda biznes inkubatorning ish faoliyati”, Dominik Orfanus tomonidan “Savdo sotiqqa asos solishning muhimligi”, Jozef Metke “Qanday qilib biz biznesimizni yaratamiz?”, Petr Briyatka tomonidan “G'oyani yaratish. Maqsad, sharoit, qiziqish.”, Handlovicova tomonidan “Ranglar tipologiyasi bo'yicha xaridorlar”, Valeriya Lesnakova tomonidan “Slovakiya texnologiya institutida Innovatsiya va texnologiyani o'tkazish” mavzularida ma'ruza qilishdi.

Xulosalar va kelgusida kutiladigan natijalar

- MIND loyihasining OTM va tashkilotlardan olgan so'rovnoma natijalari tahlil etilib taqdimot qilindi va muhokama qilindi;
- MIND loyihasida biznesni tashkil etish va uning loyihasini ishlab chiqishda innovatsiyon g'oyalar to'g'risida ma'lumotlar berildi;
- O'quv-seminari a'lo darajada tashkil etilgan, unda qilingan taqdimotlar kichik va o'rta biznesni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.
- MIND OTMda akademik sohasini yuritish va ularni tashkil etishni qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'proq joriy qilish;
- akademik va xususiy sektor o'rtasidagi bog'lanishni yaratish uchun biznes inkubatorlar tashkili strategiyasini yaxshiroq tushunish bo'yicha trening tashkil qilish;
- O'quv-seminarida olingan bilim-ko'nikmam kelgusida SamQXI iqtidorli talabalar o'rtasida biznesni tashkil qilish va boshqarishga ko'mak beradi.

O'zbek va chet tillar kafedrası
assistenti

F.Sh.Namazova

Slovakiya Texnologiya Universiteti (STU) Fuqarolik Muhandislik fakulteti dekani **Prof. Stanislav Unkik** bilan uchrashuv



Slovakiya Texnologiya Universiteti (STU)ning prorektori bilan uchrashuv,
Prof. Ing., Stanislav Biskupik



TIU da xodimlarning ish jarayoni



O'quv-seminar jarayonida olingan foto, TIUda

